



MAQSUD SHAYXZODANING HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR

Hakimova Nargiza Feruz qizi

Toshkent davlat transport universiteti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo`nalishi

TNR-5r-24 guruhi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqsud Shayxzoda... Bu ism o'zbek adabiyoti osmonida yorqin bir yulduzdek porlaydi. Uning so'zlari yuraklarga o't soladi, fikrlari esa zamonlar osha yashaydi. Shayxzoda nafaqat buyuk shoir, balki o'zbek xalqining dilidagi dardini, orzu-umidlarini tarannum etgan chinakam fidoyi inson edi. Ushbu maqola orqali biz ulug' adibning hayoti va ijodiga bir nazar tashlab, uning bebaho merosini yana bir bor yodga olamiz.*

Kalit so'zlar: *Maqsud Shayxzoda, dramaturg, Toshkentnoma, tarjimonlik, hayot va ijod yo'li, o'zbek va ozarbayjon adabiyoti, “Jaloliddin Manguberdi” dramasi, “Mirzo Ulug'bek” dramasi, poetik asar*

Kirish

“... Shayxzoda she'rlarining shakli rang-barangdir. U ruboiy (falsafiy mazmundagi to'rtlik), ballada, poema va lirik she'rlar shaklidan foydalanadi. O'z fikrlarini ifoda etish tarzi Mayakovskiyning tasviriy vositalariga o'xshab ketadi. U ham Mayakovskiy singari porloq va kutilmagan obrazlar yaratgan.”

Oybek

Maqsud Shayxzoda... Bu ism sizga nimani eslatadi: “Toshkentnoma”dagi hayotbaxsh nafasni, “Mirzo Ulug'bek” tragediyasidagi dramatik kuchni yoki “Jaloliddin Manguberdi”dagi falsafiy teranlikni? Men uchun Shayxzoda, avvalo, inson qalbiga chuqur nazar sola oladigan shoir. Uning asarlari meni doimo o'ylashga, his qilishga, o'zligimni anglashga undaydi. Ushbu maqolada men sizlarni Shayxzodaning ushbu ajoyib olami bilan tanishtirishga harakat qilaman. Umid qilamanki, ushbu maqola sizlarga shoirning asarlarini yangicha nazar bilan ko'rishga yordam beradi. Ulkan so'z san'atkorlarining qadr-qimmati, umrzoqligi, badiiy mahoratdagi ustozlik darajasini o'lchaydigan eng haqqoniy va ishonchli andaza zamon va kitobxon hisoblanar ekan, bunday sermashaqqat sinovdan sharaf bilan o'tolgan nodir siymolar qatorida Maqsud Ma'sumbek o'g'li Shayxzodaning tabarruk nomini faxr va mehr bilan yodga olamiz. Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ijodiy yo'li va boy merosi bilan alohida o'rin egallagan ijodkorlardan biridir. Adib 1908-yil 7-noyabrida Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada tavallud topdi. Uning otasi Ma'sumbek o'z zamonasining taraqqiyparvar kishilaridan biri bo'lib shifokorlik kasbidan tashqari, san'at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqardi. Ularning oilasida shaharning eng ziyoli kishilari yig'ilib, munozara va mubohasa qilishardi. Bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi. Shunday oilada tarbiya topayotgan bo'lajak shoir boshlang'ich va o'rta ma'lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirtidan o'qidi. Dastlab Darbanddagi 1-bosqich ozarbayjon maktabida, Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagan. U 1926-yili Adhem Fayziyning "Milliy firqa" tashkilotiga a'zo bo'lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928-yilda hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho'ro hukumati Shayxzodani O'zbekistonda ham ta'qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q. Muhimi shundaki, Shayxzoda "tole' doim erkalamaganiga" qaramay, umrining oxiriga qadar o'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatdi va O'zbekiston uning ikkinchi vatani bo'lib qoldi. Shayxzoda O'rta Osiyo universitetining Sharq fakultetida qisqa muddat o'qigani (1928)dan keyin „Sharq haqiqati“ (1929—32), „Qizil O'zbekiston“, „Yosh leninchi“ gazetalari (1932), „Guliston“ jurnali (1933—34) tahririyatlarida xizmat qilgan. 1933-yil Bokudagi pedagogika institutining barcha kurslari uchun imtihon topshirib, Fan qo'mitasi qoshidagi aspiranturaga o'qishga kirgan (1934). Ayni paytda Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan (1935—38). 1938-yildan umrining oxiriga qadar dastlab kechki, so'ngra kunduzgi pedagogika Intitutlarida o'zbek adabiyoti tarixidan ma'ruza o'qigan. Dastlab „Loyiq soqchi“ (1933) nomli she'riy to'plami nashrdan chiqdi. Shundan keyin shoirning „O'n she'r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „O'n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo'shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo'shiq“, „Ko'ngil deydi...“ (1943), „Yurt she'rlari“ (1948), „Yillar va yo'llar“ (1961), „She'rlar“ (1964) va boshqa she'riy to'plamlari nashr etildi. Shoirning dastlabki ijodida va qisman 50-yillardagi ayrim she'rlarida ozarbayjon she'riyatiga xos ohanglar, minbar she'riyat belgilari ustuvorlik qilgan. Ammo Shayxzoda o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatining tili va uslubini egallagani sayin uning she'rlarida o'zbekona musiqiy ravonlik kuchaya bordi. Shayxzoda voqelikka faol munosabatda bo'lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro'y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e'tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo'l urib, „O'rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O'rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O'n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o'g'il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlar yozdi. Shoirning 30-40-yillardagi she'riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim fazilatlardan biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirik syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o'tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o'z she'rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so'zning she'riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralari ko'rgan. Shu bilan birga Shayxzoda qofiyaning yangi badiiy imkoniyatlarini kashf etib, o'zbek she'riyatiga yangi vazn va shakl ko'rinishlarini olib kirgan. Shoir ijodiga xos bu tamoyil uning, ayniqsa, „Toshkentnoma“ (1958) lirik dostonida yorqin ifodasini topgan. Shoir ijodiy biografiyasida „Toshkentnoma“ dostoni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

alohida o‘rin tutadi. Bu asarni unga eng og‘ir kunlarida boshpana va panoh bo‘lgan shahri azimga bo‘lgan muhabbati o‘laroq yaratilgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Maqsud Shayxzodadan bizga ulkan meros qoldi. Uning she‘riyati ko‘ngillarni xushnud etishda davom etmoqda, dramalari sahnalarda qo‘yilmoqda. Maqsud Shayxzoda o‘zbek va ozarbayjon xalqlarining mustahkam do‘stligi ramzi, ikki xalq farzandi sifatida mangukka daxldordir. Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlardan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan. Shayxzoda o‘zi e’tirof etganidek, hali savodi chiqmasidan she‘r mashq qila boshlagan shoir. Biroq u o‘zining dastlabki ijod namunalarini 1929-yildan boshlab e‘lon qila boshladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Shayxzoda barcha o‘zbek shoir va yozuvchilari qatori bor ijodiy salohiyatini fashizm ustidan g‘alaba qozonishga qaratdi. Bu davr shoir ijodining yuqori darajaga ko‘tarilgan, uni chinakam vatanparvar ijodkor ekanini namoyon qilgan davr bo‘ldi. Insoniyatga tahdid solayotgan XX asr balosi – fashizmni yo‘q qilish, hayotni, tiriklikni, or-nomusni saqlash, xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga undash shoirning o‘sha yillari chop etilgan “Kurash nechun” (1941), “Jang va qo‘shiq” (1942), “Kapitan Gastello” (1941), “Ko‘ngil deydiki” kabi to‘plamlarining bosh mavzusi bo‘ldi. Shu yillarda Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi” (1944) dramasi yozdi. Unda o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirladi. Tarixdan yaxshi ma‘lumki, yurtimizni XIII asrlarda Chingizxon qo‘shinlari bosib olmoqchi bo‘lganida, xalqimizning asl mard o‘g‘lonlaridan biri Jaloliddin Manguberdi istilochilarga qarshi qattiq kurashadi. Vatan mustaqilligini saqlash uchun mardonavor turib jang qiladi. Ushbu drama o‘z vaqtida sahnalashtirilgan va jasur vatanparvar Jaloliddin Manguberdi siymosini sahnada buyuk aktyorimiz Shukur Burhonov gavdalantirgan. Maqsud Shayxzoda urushdan keyingi tinch qurilish yillari yana qaytadan nohaq qatag‘on qilinganiga qaramay, farovon hayot va bunyodkorlik zavqini tarannum etuvchi she‘rlardan iborat “O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu‘la”, “Chorak asr devoni” kabi to‘plamlarini nashr ettiradi. Shayxzoda she‘riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda qalam tebratdi, dramaturgiyasida esa, tarixiy o‘tmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag‘ishladi. U umrining so‘nggi yillarida Beruniy to‘g‘risida so‘nggi sahna asarini yozishni boshladi. Ammo yakuniga yetkaza olmadi. Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan. 1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e‘lon qilgan Shayxzoda umrining so‘nggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug‘ullanib keldi. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirikasining ba‘zi bir poetik usullari haqida“ (1959),





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

„Ustodning san'atxonasida“ (3 qismli maqola, 1965—66), „G‘azal mulkining sultoni“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov singari namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yozdi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo‘shdi. Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o‘ynadi. U Shota Rustavelining „Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U. Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning she‘rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu. Lermontovning she‘rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi. Maqsud Shayxzoda „xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do‘stlik, baxt va alam, yurtning go‘zal manzaralari va insonning ma‘naviy jamoli mening qalamimga oshno, dilimga mazmun bo‘lib keldi“ deb ta‘kidlagan edi. Shoirning bu fazilatlarini, eng avvalo, hayotdagi, voqelikdagi va odamlarimizning ruhiy olamidagi o‘zgarishlar, holatlarni ifodalashga qodir yangi, betakror obrazlarida namoyon bo‘ldi. Shoirning o‘zi „Inson umri cheklangan muhlatli daftar“, demak bu daftarini foydali, ezgu ishlar – „yozuvlar“ bilan to‘ldirish lozim deydi. „Raqamlar“ she‘rida esa shunday satrlar bor: „Men na munajjimman va na hisobdon va lekin ko‘raman sonlar mag‘zida osmoncha ma’nolar, yurtni obodon“. Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda vafot etdi. U Toshkentning Farobiy qabristonida dafn etildi. Ozarbayjon tuprog‘ida tug‘ilgan falakning gardishi bilan o‘zbek tuprog‘iga kelib qolib, zavq – shavq bilan ijod qilgan, zamonaviy o‘zbek adabiy tili va adabiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan bu ulug‘ insonning muborak nomi hech qachon xalq xotirasidan o‘chmaydi. Zero uning o‘z yozganidek:

Umrlar bo‘ladiki,
Tiriklikda o‘likdir,
Umrlar bo‘ladiki,
O‘lgan odam tirikdir.

Xulosa

„Shayxzoda bu dunyodan rohat ko‘rmay o‘tib ketdi. Lekin u baribir baxtli inson edi. Uni el shoirim derdi. Shayx akam, derdi. Yoshlar uni ustozim derdi. Yosh shoirlar to‘da-to‘da bo‘lib unga ergashib yurardilar. U olim edi. U muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zgan saxiy inson edi. U g‘amda qolganlarga g‘amguzor edi. U suhbatini jonon odam edi. U nolishni bilmasdi. Taqdir zarbalariga sabot bilan turib berardi. Bir so‘z bilan aytganda u





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

dilbar inson edi. Bir odamda shuncha fazilat bo'lishi mumkinligini Shayxzoda timsolida ko'rganman. U olim shoir edi. U shoir olim edi.

Bunday insonlar dunyoga kamdan-kam keladi" (Said Ahmad). Akademik Naim Karimov ta'biri bilan aytsak, Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotini jahon xalqlari adabiyotlari bilan o'zaro bog'lagan "oltin ko'prik"larimizdan biridir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda Maqsud Shayxzoda asarlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning insoniylik, adolat va ma'rifatparvarlik g'oyalari har qanday davrda ham muhim ahamiyatga ega. Shayxzoda ijodi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Google internet tarmog'i. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Shayxzoda>
2. Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik // Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman maqolalari to'plami. – Toshkent, 2020. – 173 b
3. M. Qosimov. "O'zbek adabiyoti tarixi", Toshkent, Fan nashriyoti, 1985.
4. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983;

